

MAMLAKATIMIZDA YURIDIK SHAXSLAR TOMONIDAN TO'LANADIGAN YER SOLIG'I ELEMENTLARI.

DEXQONOV SANJARBEK ODILJON O'G'LI

[*dexqonovsanjarbek67@gmail.com*](mailto:dexqonovsanjarbek67@gmail.com)

Bank-Moliya Akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan yer solig'i iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatimizda yer resurslaridan samarali foydalanish va davlat budjetini to'ldirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu soliq turi, asosan, yuridik shaxslar tomonidan, ularning balansida mavjud bo'lgan yer maydonlari uchun to'lanadi va bu orqali mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim moliyaviy resurslar shakllantiriladi. Ushbu tadqiqotda, yer solig'ining asosiy elementlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: *yuridik shaxs, yer solig'i, soliq obyekti, soliq bazasi, soliq to'lovchilari, yer maydoni.*

Annotation. Land tax paid by legal entities is an important component of economic policy and plays an important role in effective use of land resources in our country and filling the state budget. This type of tax is mainly paid by legal entities for the land areas on their balance sheets, and through this, important financial resources for the country's economy are formed. In this study, we will take a closer look at the main elements of land tax.

Key words: *legal entity, land tax, tax object, tax base, taxpayers, land area.*

Аннотация. Земельный налог, уплачиваемый юридическими лицами, является важной составляющей экономической политики и играет важную роль в эффективном использовании земельных ресурсов в нашей стране и наполнении государственного бюджета. Этот вид налога в основном уплачивают юридические лица за земельные участки, находящиеся на их балансе, и за счет этого

формируются важные финансовые ресурсы для экономики страны. В данном исследовании мы более подробно рассмотрим основные элементы земельного налога.

Ключевые слова: юридическое лицо, земельный налог, объект налогообложения, налоговая база, налогоплательщики, земельная площадь.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining quydagi asosiy elementlari: soliq to'lovchilari, soliq solish obyektlari va soliq bazasi hisoblanadi. Yer uchastkalariga ega bo'lgan barcha yuridik shaxslar ushbu soliqning to'lovchisi hisoblanadi. Hamda, O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslardan ham yer solig'i olinadi. Ko'chmas mulk ijaraga berilgan hollarda, ijaraga beruvchi soliq to'lovchi sifatida tan olinadi. Moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga asosan ko'chmas mulk lizingga olingan bo'lsa, lizing oluvchi soliq to'lovchi hisoblanadi. Agar yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalanayotgan bo'lsa, har bir shaxs o'z ulushi uchun soliq to'lash majburiyatiga ega bo'ladi. Yer uchastkalari mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarga tegishli bo'lsa, ular yer solig'i solinadigan obyektlar sifatida hisoblanadi. Ba'zi yer uchastkalari soliq solish obyekti sifatida hisoblanmaydi. Masalan, notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyati uchun foydalaniladigan yerlar, umumiy foydalanishdagi yo'llar, madaniy-maishiy ehtiyojlarni qondirish uchun foydalaniladigan yerlar, davlat qo'riqxonalarining va tabiiy yodgorliklarning yerlar, sog'lomlashtirish va rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari yerlar, kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar, ko'p kvartirali uylar va yotoqxonalar egallagan yerlar va boshqalar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha soliq bazasi, soliq solinmaydigan yer uchastkalarining maydonlari hisobga olinmasdan, umumiy maydon hisoblanadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha soliq bazasi, soliq solinmaydigan yer uchastkalarining maydonlari hisobga olinmasdan, yer

uchastkalarining normativ qiymati asosida hisoblanadi. Agar yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi yil davomida o'tsa, soliq bazasi huquq vujudga kelganidan keyingi oydan hisoblanadi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilsa, soliq bazasi kamaytirilgan oydan e'tiboran hisoblanadi. Yuridik shaxslar uchun soliq imtiyoziga bo'lgan huquq vujudga kelganidan keyin soliq bazasi kamaytiriladi, imtiyoz bekor qilinganida esa soliq bazasi oshiriladi. Agar soliq to'lovchi soliq solish nazarda tutilmagan faoliyatni amalga oshirsa, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan yer uchastkalari bo'yicha alohida-alohida hisoblanadi. Agar alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmasa, soliq bazasi soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyatdan olingan sof tushumning umumiy sof tushumdagi ulushiga ko'ra aniqlanadi. Ushbu qonunchilik yuridik shaxslar uchun yer solig'ini to'lash tartibini aniq belgilab, soliq to'lovchilar va soliq obyektlarini aniqlashda yuridik shaxslar uchun muhim asoslarni taqdim etadi. Bu tartiblar soliq tizimini adolatli va samarali boshqarishga yordam beradi hamda yer uchastkalaridan foydalanishni tartibga solishda yordam beradi. Mamlakatimizda yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan yer solig'i iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan soliq turi hisoblanadi. Soliqning asosiy elementlari – soliq obyekti, bazasi, stavkasi va hisoblash tartibi – yer resurslaridan samarali foydalanish va davlat budjetini to'ldirishda muhim rol o'ynaydi. Yer solig'i yuridik shaxslar uchun moliyaviy majburiyat, yer resurslarini boshqarish, davlat budjetini to'ldirish va qonuniy mas'uliyatni bajarishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu soliq turining samarali amalga oshirilishi davlat va iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bazarov V.B., Vanchikova S.P. Ekonomicheskaya Sistema mongolskoy imperii. Jurnal VLAST. 2015 g. № 6
2. Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: —Moliya, 2016.– 192 b.
3. Qodirjon o'g'li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
4. Ogli, T. B. Q. (2021). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHLARIDA SOLIQLARNING TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1), 246-250..
5. Turanboyev, B. (2024). O'ZBEKISTON FOND BOZORIDA AKSIYALAR SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI TAHLILI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 5-8.
6. Turanboyev, B. (2024). ILG'OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 1-4.
7. Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, & Mamasoliyev Javlonbek Ortiq o'g'li. (2023). MAMLAKAT YALPI ICHKI MAHSULOTIGA SOLIQ TURLARINING TA'SIRI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 53–60.